

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

**O'yinlar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish.
Teaching English to preschool children through games.**

**Jizzakh State Pedagogical University
The faculty of Preschool Education
The methodology of preschool education
Sagdullayeva Shahzoda
Teacher Gulrux Majidova**

Annotatsiya

Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim muassasida turli xil o'yinlar orqali bolalarga ingliz tilini o'rgatish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, musiqa, o'yinlar, qiziqarli tarqatma materiallar.

Abstract

This article provides information on teaching English to children through various games in preschool.

Keywords: English, music, games, interesting handouts, materials,

"Dunyoga kelgan yangi chaqaloq bolaning ruhini «top-tozapaxtaga» o'xshatadi. Uningfikricha, bolaning «top-toza paxta» tarzidagi ruhiga nimalarni yozish mutlaqo katta odamlar ixtiyorlaridadir. Shuning uchun bolaning qanday odam bo'lib yetishishi, ya'ni unda qanday shaxsiy fazilatlarining tarkib topishi bola hayotdan oladigan tajribaga, o'zgaralar bilan muloqot jarayonida oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlariga bog'liqdir", deb ta'kidlaydi Angaliyalik olim Djon Lokk.

Bolalarga e'tibor bilan ularni qiziqishlarini aniqlovchi testlar, rasmi testlar xar xil savollar bilan aniqlab olishimiz zarur. Har bir bola bilan gaplashib qiziqishlarini aniqlab bo'lgach ularga mos qo'shiqlar, o'yinlar, diqqatni jalb qiluvchi qiziqarli va rangli, multik qahramonlardan iborat tarqatma materiallar bilan darsni boshlaymiz. Birinchi navbatda bolalar bilan salomlashamiz va mavzuyimizni tushuntirishimizdan oldin mavzuyimizga oid bolalar bilan kichik suhbatlar olib boramiz, ularni fikrini eshitamiz, mavzuyimizga oid qo'shiqlar va o'yinlar bilan boshlaymiz. Chunki bolalarda mavzuga oid tushuncha paydo qilib va darsni tushunishlari oson va qiziqarli bo'ladi. Sekin astalik bilan qiziqarli tarqatmalarimizni tarqatib olamiz uni ham o'yin bilan tarqatamiz misol uchun: bolalarni sevimli rangi yoki yoqtrgan multik qahramonlarini so'rab berishimiz ham mumkin. Tarqatma materiallarni tarqatib bo'lgach ularni ko'rib nimalarni tasavur qilishganini so'rab sekin mavzuni tushuntiramiz. Kichik yoshdagi bolalarni diqqati

tez bo'linishi mumkin yoki tez zerikib qolishmasliklari uchun har xil o'yinlar bilan qiziqtirib zerikib qolmasliklari uchun o'yinlar turlari:

- Ko'zgu o'yini - tanlashdan maqsad bolalarni kuzatuvchanligini, diqqatini rivajlantirish.
- Xatosini top nomli o'yin ham bor. Bu o'yin tanlashimizdan maqsad bola darsni tushunganini aniqlab ham olishimiz mumkin. Misol uchun bugungi mavzuyimiz sonlarni inglizchada aytishni o'rgatamiz. Rasmga sonlarni har xil joylashtiramiz va bolalarga ko'rsatamiz bolalarga aytamiz xatosini toping deb. Biz bolalarga ketma ketlikda o'rgatgan bo'lsak misol uchun ular aytishadi xatolarini bilib olishimiz mumkin mavzuni tushunishganligini.
- Keyingi qiziqarli o'yinimiz bu - mavzuyimiz sonlarni o'rgatadigan bo'lsak sonlar yozilgan rasmni ko'rsatib bolalardan so'raymiz bu qaysi son deb bilmagan bolalar o'yindan chiqib yodlagan she'rini aytib berishadi.
- Ovozli ertak jarayonida bolalar o'qituvchi bilan birgalikda rasmlarni ko'rib chiqishadi va shu bilan birga so'zlarni talaffuz qilishadi.
- Multfilmlar ingliz tilida - ingliz tilini o'qitishda eng yaxshi yordamchilardan biri. Bolalar multfilmlarni yaxshi ko'radilar va ularni ketma-ket tomosha qilishdan zavqlanadilar. Shuning uchun ingliz tilidagi multfilmlar bir vaqtning o'zida bolalarga chet tilini o'rgatishning ko'plab muammolarini hal qilishga yordam beradi.
- Mavzuga oid muhit; O'qituvchi mavzusiga qarab o'sha muhitni yaratib bera olsa, bolalar tilni yaxshi o'rganishadi. Masalan: traveling, birthday, in the kitchen va boshqalar. Traveling (sayohat) mavzusida o'qituvchi sayohat uyushtirishi, sayohatga qanday vositalar orqali (foot, bicycle, automobile, train, boat, airplane) borish mumkinligi, qayerlarga sayohat qilish (Tashkent, Samarkand, Bukhara, England, USA) muhimligi haqida ma'lumot beradi. Bu hoi o'quvchilarning so'z boyligini, til imkoniyatlarini kuchaytiradi, dunyoqarashini o'stiradi.
- Qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan, ma'noga ega bo'lmagan harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumki.
- Aqliy va jismoniy harakatlar bilan bo'g'liq bo'lgan o'yinlar.
- Ovozli ertak jarayonida bolalar o'qituvchi bilan birgalikda rasmlarni ko'rib chiqishadi va shu bilan birga so'zlarni talaffuz qilishadi.
- Ingliz audio ertaklarini tinglashni yanada qiziqarli qilish uchun siz ertak terapiyasining usullaridan biri - ertak chizishidan foydalanishingiz mumkin. Ammo tinglash paytida rasm chizish, agar ertak syujeti bolaga kamida bir oz tanish bo'lsa,

ishlaydi. Shuning uchun ertak ikkinchi yoki uchinchi marta tinglanganda bolalarga qalam va qog'oz beriladi. Haqiqat shundaki, tinglash paytida rasm chizish - bu ma'lumotni bir vaqtning o'zida idrok etish va ko'paytirishning chuqur ko'nikmalariga ta'sir qiluvchi jarayon. Chizish jarayonida bola eshitganlari bilan assotsiativ aloqalarni shakllantiradi. Ixtiyoriy yoki beixtiyor, rasmda tasvirlangan syujet bilan bog'liq bo'lgan begona so'zlar esga olinadi. Yo'lda, u bir vaqtning o'zida tinglashi va eshitgan narsalarini chizish qobiliyatiga ega ekanligiga e'tibor berish kerak. To'rt yoshdan besh yoshgacha bo'lgan chaqaloqlarning aksariyati eshitgan ma'lumotlarini tezda ko'paytirish qobiliyatiga ega emaslar. Ammo olti yoshga kelib, eshitgan ma'lumotlarini takrorlash, rasm chizish, ilova va hk shaklida muntazam ravishda tinglaydigan va ko'paytiradigan bolalar bir vaqtning o'zida tinglash, eshitish, tushunish va talqin qilish qobiliyatini rivojlantiradilar.

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bolalarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishi darkor. Chunonchi, buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ham ko'plab xorijiy tillarni mukammal bilgan, bu tillarda bimalol gaplasha olgan hamda shu tillarda ijod qilgan. Bunday imkoniyat allomaning dunyo ilm- fanini o'rganishga, buyuk ishlarni amalga oshirishiga turtki bo'lgan. Zero, Navoiy bobomiz aytganlaridek, «Til bilgan - el biladi»

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Astafieva M.D. Ingliz tilini o'rganayotgan bolalar uchun ta'til. - M.: Mozaika-sintez, 2009 y.
2. Galskova N.D. Nikitenko Z.N. Chet tillarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti. boshlang'ich maktab: uslubiy qo'llanma.-M.: Airis-press, 2004.
3. Guseva L.P. Biz o'ynaymiz, o'qitamiz, o'zlashtiramiz - biz ingliz tilini bilishni xohlaymiz. - Rostov n / a: Feniks, 2009 y.
4. Zemchenkova T.V. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ingliz tili. - M.: VAKO, 2008 yil.
5. Ivanova M.V. Bolalar uchun ingliz tili. - M.: AST: Astrel, 2009 y.
6. Trofimova G.S. Chet tillarni o'qitishning pedagogik asoslari (Subaktika didaktikasi). - Izhevsk: Udmurt universiteti nashriyoti, 1999 y.
7. Kozina S.V. Ingliz tilida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta'til. - M.: TC Sphere, 2008 yil.

Maktabgacha ta'lim jurnali: <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/index>

8. O'ktamova Munavvara G'ayratjon qizi, Raufjonova Navo'za Botir qizi. "Kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatish metodikalari yohud har xil qo'shiq bilan qiziqtirib o'rgatish".